



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 5/3 2024



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

5/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Даниярова З.Ж. Антропонимлер инсан искерлиги мысалында	6
Bobojonov F.Q., Saidahmadov Sh.B. Lingvistik tahlil me'zonlari	14
Sultanova A., Shojonova M. O'zbek tili darslarida ta'limning zamonaviy usullaridan foydalanish	19
Атамухамедова Р.Ф. Хорижий тилларни ўқитишда оила ва маҳалла ҳамда таълим муассалари ҳамкорлиги	24
Yusupov A.A. O'zbek tilini mustaqil o'rganish uchun o'quv topshiriqlar ishlab chiqishning lingvodidaktik ahamiyati	30
Мирзалиев Т.Г. Применение метода проектов в обучении русскому языку	34
Мирзалиева Д.С. Применение виртуальной и дополненной реальности в вузах	40

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Abdug'aniyev O.T. Yangi O'zbekiston sharoitida talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentligini rivojlantirish pedagogik imkoniyatlari	46
Turakulova F.A. Oliy ta'lim talabalarining malakaviy pedagogik amaliyotini tashkil etish mexanizmlari	49
Kabulov I.Sh. O'quvchilarda esse yozish ko'nikmasini rivojlantirish bosqichlari	54
Avezbayeva J. Nasriy asarlarni o'qitishda o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatuvchi savol va topshiriqlarning ahamiyati	61
To'xtayeva Z.Sh., Aripjanova M.A. Talabalarining tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish	66
Jumamurodova U.M., Xatamjonov B.E. Ta'limda muomila madaniyatining o'rni	71
Madgafurova D.O. Ilmiy psixologiyada shaxs qobiliyatlari masalasining o'rganilishi	75
Muqumova D.I., Haqqulova M.N. Pedagogikada qo'llaniladigan interfaol metodlar	80
Supiyeva B.A. O'quvchilarda lisoniy kompetensiyani shakllantirish yuzasidan metodik tavsiyalar	84
Xabibullayeva N.O. Maktabda nogironligi bor o'quvchilarning ta'lim-tarbiya olishi uchun qulay shart-sharoit yaratish	90
Irisboyeva Yo.O'. Turli yosh guruhlarida geometrik shakllar shakllantirishning metodik usullari	97
Magdiyeva Z.Yu. Oila qurishga va oilaviy munosabatlarga tayyorlikning psixologik omillari	101
Xayitov S.T. Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirishning ijtimoiy- psixologik xususiyatlari	106
Rejemetov X.F. Turli yosh guruhlarida vaqt tushunchasining o'rgatish metodikasi	113
Присбоева Х.Ў. Мактабшунослик терминологиясининг ривожланиш тенденциялари	120
Хамидова С. Талабаларда маданиятлараро компетентликни ривожлантиришнинг назарий ва методологик аспекти	124
Joldasov I.S. Elektron ta'lim muhitida ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish imkoniyatlari	129
Ортиқова Д.Б. Ўзбек адабиёти таълимида талабаларнинг ўқув-билиш мотивациясини фаоллаштириш масалалари	135
Jumaniyazova Z. Talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish - davr talabi	139
Qodirov I. Oliy ta'limda kredit-modul tizimi joriy etilishining ijobiy xususiyatlari	143
Tadjiyev X.M. Biologiya darslarida botanika fanida talabalarining mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish	148
Xodjaniyazova R.A. Tarbiya fani orqali o'quvchilarning ma'naviy dunyosini tarbiyalashda o'qituvchining innovatsion kasbiy faoliyati	154



OLIY TA'LIMDA KREDIT-MODUL TIZIMI JORIY ETILISHINING IJOBIY XUSUSIYATLARI

Qodirov I.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika kafedrasi v. b. dotsenti*

Tayanch so'zlar: kredit, modul, individual ta'lim trayektoriyasi, amaliy ko'nikma, kasbiy motivatsiya, mustaqil ta'lim, kreativ tafakkur.

Ключевые слова: кредит, модуль, индивидуальная образовательная траектория, практические навыки, профессиональная мотивация, самостоятельное образование, креативное мышление.

Key words: credit, module, individual educational trajectory, practical skills, professional motivation, independent education, creative thinking.

Резюме:

Maqolada mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga kredit-modul tizimining joriy etilishi, uning me'yoriy-huquqiy asoslari va uning ta'lim sifatiga ijobiy ta'siri, kredit-modul tizimining amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy ta'lim o'qituvchisi va talabalarning hamkorligi xususida so'z yuritiladi.

Резюме:

В статье речь идет о внедрении кредитно-модульной системы в систему высшего образования страны, ее нормативно-правовых основах и положительном влиянии на качество образования, сотрудничестве преподавателей и студентов высшего образования в результате внедрения кредитно-модульной системы в практику.

Summary:

The article deals with the introduction of a credit-modular system in the country's higher education system, its regulatory framework and positive impact on the quality of education, cooperation between teachers and students of higher education as a result of the introduction of a credit-modular system in practice.

Oliy ta'lim bugungi kunda uzluksiz ta'limning muhim bosqichi hisoblanib, davlatning kadrlarga bo'lgan ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirish kabi dolzarb vazifani bajaradi.

Oliy ta'limni isloh qilish, amaliyotga innovasion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish, o'qitish jarayonida axborot muhitini yaratish, talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish, natijalarni baholashning optimal mezonlarini amaliyotga tatbiq etish kabi masalalar davlatning qator hujjatlarida alohida



vazifalar sifatida belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida, jumladan, ta'limning uzluksizligiga erishish maqsadida umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim dasturlarining uyg'unligi va izchilligini ta'minlash; individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish; talabalarining mustaqil ta'lim soatlarida, nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish kabi vazifalarga alohida e'tibor qaratilgan [1]. Albatta, bu vazifalar oliy ta'lim o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar, variativ o'quv dasturlarisiz va optimallashtirilgan o'quv-metodik materiallarni keng joriy etishsiz hamda eng muhimi professor-o'qituvchilarning kreativ tafakkurisiz amalga oshmaydi. Qachonki, o'qituvchining o'zida yangilikka intilish, zamon bilan hamnafas bo'lish, davlatning ta'lim oldiga qo'yayotgan talablarini qadriyat darajasiga ko'tarish hissi shakllanmas ekan, talabalarda kasbiy motivasiya, maqsadga erishish uchun intilish, fanlarni o'zlashtirishga mas'uliyatni tarkib toptirib bo'lmaydi. Bundan tashqari davlatimiz rahbarining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning aksariyati asosan, oliy ta'lim mazmunini modernizatsiyalashni, amaliyotga jahondagi ilg'or tajribalarni olib kirishni, ta'limni tashkil etishni samarali texnologiyalaridan foydalanishni ko'zda tutadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim islohotlari nafaqat O'zbekistonda, balki rivojlangan mamlakatlarda ham tezkor sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Ushbu tezkorlik zamon talabi, axborot ko'laminig va inson tafakkuri imkoniyatlarining kengayib borayotganligi bilan bog'liqdir.

Hozirgi kunda jamoatchilik kommunikatsiyasini hamda hayot faoliyatini virtuellashtirish sharoitida XXI asr talabasining ehtiyojlariga moslashuvchan yangi yondashuvlar tatbiq etilmoqda. Zamonaviy texnologiyaning qo'llanilishi, avvalo, zamon o'zgarishi, talaba hamda o'qituvchi o'rtasidagi faoliyatning insonparvarlashtirilishi, mustaqil qaror qabul qilishga imkon berish, ijodiy erkinlik kabilar bilan bog'liqdir. Bundan tashqari iqtisodiy va ijtimoiy

o'zgarishlarning muntazamliligi talabalarni mustaqil ta'lim olish shakl va yondashuvlaridan foydalanishga undamoqda.

Shuning uchun oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilari oldida sifatli kadrlar tayyorlash imkonini beruvchi ta'limiy faoliyatni tashkil etishning shakl va usullarini tanlashda kasbiy sezgirlik taqozo etilyapti.

Hozirgi kunda jahon miqyosida kredit-modul tizimi keng qo'llanilib kelinmoqda. Bunga sabab zamonaviy mutaxassisdan kasbiy kompetentlilik va noodatiy vaziyatlarda qaror qabul qilish, jamoada ishlash, axborotni mustaqil olish, tahlil qilish, samarali foydalanish, o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashuvchanlik talab etiladi. Bu sifatlarga ega mutaxassisni tayyorlash esa oliy ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. O'qitishning kredit-modul tizimi sanab o'tilgan jihatlarga ega kadrlarni tayyorlashga keng imkoniyat yaratadi. Qulay va samarador mazkur tizim mehnat bozorining o'zgaruvchan ehtiyojini qoplovchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining akademik harakatchanligini ta'minlaydi. Kredit tizimining ahamiyati shundaki, akademik dasturlar mehnat bozori talablariga mos holda tuziladi. O'quv rejadagi fanlarning 50 foizi tanlov fani bo'lib, o'quv jarayoniga axboriy tizimlar joriy etiladi. Shuningdek, talabalarni o'qitish va mehnat bozoriga tayyorlashga individual yondashilib, ular mustaqil ta'lim olishga yo'naltiriladi. Individuallashtirilgan va differentsiallashtirilgan o'qitish tizimi ta'lim muassasalarining muqobilligi, o'quv-dasturiy hujjatlarning harakatchanligi, o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga moslashuvchanligiga asoslangan, qisqacha qilib aytganda, bu Evropa mamlakatlarining oliy ta'lim tizimlarini uyg'unlashtirish, har bir kishi uchun teng ravishda ta'limni ta'minlash, intellektual, madaniy, ijtimoiy, ilmiy va texnologik salohiyatni shakllantirish va mustahkamlash, ta'lim sifatini takomillashtirish jarayonidir.

Xorijiy tajribalarni izchil o'rgangan holda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida ham bir qator o'zgarishlar bo'lmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari tomonidan 2019 yilning 8 oktyabrda PF-5847 "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi sonli Farmoni imzolandi. Ushbu muhim hujjatda "O'zbekiston Respublikasidagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 talikdagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" belgilab berildi.



Kredit-modul tizimi talaba yuklamasini o'lchash birliklari sifatida modulli ta'lim texnologiyalari va European Credit Transfer and Accumulation System-ECTS kreditlari birligiga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etish modelidir[2].

Kredit-modul tizimi - bu ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o'lchovi asosida o'qitish modeli hisoblanadi. Shuningdek, bu mustaqil ta'lim olishga qaratilgan, individuallik asosida bilimni ijodiy o'zlashtirish, o'quv jarayonini qat'iy belgilangan holda ta'lim yo'lini tanlash va kredit shaklida bilim hajmini belgilovchi tizimdir. Bu tizim hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida umumiy yo'lga qo'yilgan, vaqt sinovlarida o'zini yetarlicha oqlagan, bir vaqtning o'zida o'zaro farq qiluvchi, ham o'zaro bir-birini to'ldiruvchi ikkita - "modul" va "kredit" o'qitish texnologiyalarini birlashishidan hosil bo'lgan. 1999 yil iyun oyida Italiyaning Bolonya shahrida dunyoning 29 ta mamlakati o'rtasida imzolangan Bolonya deklarasiyasiga qo'shilish masalasiga bugungi kunda yurtimizda alohida e'tibor berilmoqda. Ushbu jarayonning huquqiy asosi qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da bu masala belgilab o'tilgan. Yurtimiz oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimining joriy etilishi bu boradagi ishlarning boshlab yuborilganini e'tirof etadi [3].

Bu tizimning oliy ta'limga joriy qilinishi shaffoflikni ta'minlash, korrupsiya holatlariga barham berish, o'qitish sifatini oshirish, talabalarning haqqoniy bilimni yuzaga chiqarish va mustaqil o'qib-o'rganib, o'z ustida ishlashlariga zamin yaratadi. Hozirgi kunda Evropa kredit-modul tizimi qit'aning deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarida amaliyotga joriy etilgan. Kredit-modul tizimining amaliyotga joriy etilishi oliy ta'lim o'qituvchisi va talabalarning hamkorlikda ish olib borishlarida muhim omil sanaladi. Ushbu ta'limda o'qituvchi talabalarning o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, maslahat beradi, boshqaradi va tekshiradi. Talaba esa, o'z o'rnida yo'naltirilgan ob'ekt tomon (kreativ yondashgan holda) mustaqil harakat qiladi. Asosiy e'tibor ham talabalarning mustaqil ta'lim olishiga, kreativ fikrlashiga, kasbiy kompetensiyalarining oshishiga qaratiladi.

To'g'ri tashkil etilgan o'quv jarayonida mustaqil ta'limning ahamiyati ortadi va bu kelajakda bo'lajak mutaxassislarning ijodiy tashabbuskorligi, mustaqilligi va faolligini oshirishga olib keladi. Kredit-modul tizimida oliy ta'lim muassasasi talabalari doimiy ravishda o'qituvchi hamda kursdoshlaridan maslahat va yordam olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa, o'z o'rnida



o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, o‘sib kelayotgan yosh avlodning innovatsiyalar muhitiga tez moslashuvchanligi o‘qitish tizimida transformasiyalashgan yondashuvlardan foydalanish ehtiyojini kuchaytiruvchi omildir. Yurtimiz oliy ta‘lim muassasalarining ham kredit-modul tizimiga o‘tishida ta‘limda mavjud bo‘lgan eng ilg‘or yutuqlar bilan hamnafas bo‘lish, ta‘limni xalqaro standartlar talabiga moslashtirish hamda bu orqali ta‘lim sifatini ta‘minlash maqsad qilingan. Ta‘lim sifati ta‘minlangan dargohdan raqobatbardosh, zamonaviy bilimlarni egallagan yetuk kadrlar etishib chiqadi va bu holat jamiyat rivojiga, vatanimiz taraqqiyotiga bevosita ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. <https://www.lex.uz>
2. https://ec.europa.eu/education/sites/education/files/document-library-docs/ects-users-guide_en.pdf
3. L.Zaripov, N.Xayitov, M.Tuxtaeva Kredit-modul tizimi bo‘yicha xorij tajribasi [Matn]: metodik qo‘llanma – T.: “Yetakchi nashriyoti”, 2024 5-b
4. Topildiyev V.R. Oliy ta‘lim muassasalarida kredit - modul tizimini joriy etish xususida ayrim mulohazalar // Science and innovation international scientific journal, 2022. № 3.
5. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta‘lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori ... diss. – Toshkent, 2007. 286 b.